KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TALIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Qudratov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR

Xamrakulov Azamat Baxritdinovich

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi bo'lim boshlig'i o'rinbosari hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Real iqtisodiyot" kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi
Muallifning elektron manzili: hamrakulovazamat1988@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Unda reklama faoliyatining iqtisodiy mohiyati, xizmatlar bozorida raqobatning shakllanish omillari hamda raqobat ustunligini ta'minlashda innovatsion strategiyalarning o'rni ochib berilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va marketing kommunikatsiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida reklama xizmatlari sifatini oshirish, iste'molchilar ishonchini mustahkamlash hamda milliy kompaniyalarning raqobatbardoshligini kuchaytirish bo'yicha nazariy asoslar yoritilgan. Tadqiqot natijalari reklama bozori ishtirokchilari uchun samarali raqobat strategiyalarini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: reklama xizmatlari, raqobatbardoshlik, marketing strategiyasi, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, iste'molchi ishonchi.

Abstract. This article analyzes theoretical approaches to enhancing competitiveness in the advertising services market. It explores the economic essence of advertising activities, the key factors shaping competition in the service sector, and the role of innovative strategies in achieving competitive advantages. The study highlights the impact of digital technologies and marketing communications on improving the quality of advertising services, strengthening consumer trust, and boosting the competitiveness of national companies. The results provide practical insights for developing effective competitive strategies for market participants in the advertising industry.

Key words: advertising services, competitiveness, marketing strategy, innovation, digital economy, consumer trust.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические подходы к повышению конкурентоспособности на рынке рекламных услуг. Раскрыта экономическая сущность рекламной деятельности, факторы формирования конкуренции на рынке услуг и роль инновационных стратегий в обеспечении конкурентных преимуществ. Особое внимание уделено влиянию цифровых технологий и маркетинговых коммуникаций на повышение качества рекламных услуг, укрепление доверия потребителей и развитие конкурентоспособности национальных компаний. Полученные результаты могут быть использованы при разработке эффективных конкурентных стратегий участниками рекламного рынка.

Ключевые слова: рекламные услуги, конкурентоспособность, маркетинговая стратегия, инновации, цифровая экономика, доверие потребителей.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida reklama xizmatlari bozori milliy iqtisodiyotning eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Axborot oqimlarining keskin ortishi, iste'molchilar xulq-atvorining o'zgarishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi reklama faoliyatining mazmuni va shakllarini tubdan yangilamoqda. Shu sababli reklama xizmatlari ko'rsatish sohasida raqobatbardoshlikni oshirish masalasi nafaqat korxonalar, balki butun iqtisodiy tizim uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik — bu xizmatlar sifati, innovatsion yondashuv, marketing strategiyasi va iste'molchilar ishonchi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik natijasida shakllanadigan murakkab iqtisodiy



jarayondir. Raqobat muhitining kuchayishi reklama kompaniyalaridan nafaqat kreativlik, balki iqtisodiy samaradorlik, bozor ehtiyojlariga moslashuvchanlik va brendning ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlashni ham talab etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda xizmatlar sektorini rivojlantirish, xususan reklama faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa milliy reklama agentliklarining raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy kompaniyalar bilan teng sharoitda faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, bozorda samarali raqobatni ta'minlash, iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish hamda reklama xizmatlarining sifat va mazmun jihatidan yuksak standartlarga moslashuvi muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy asoslari, unga ta'sir etuvchi omillar, raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmlari va zamonaviy marketing yondashuvlarining o'zni tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar, raqamli marketing vositalari va kommunikatsion strategiyalar orqali reklama xizmatlarining samaradorligini oshirishga doir ilmiy qarashlar bayon etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik masalasi xalqaro va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ularning ilmiy qarashlari reklama faoliyatining iqtisodiy mohiyatini, iste'molchilar xulqini shakllantirishdagi rolini hamda raqobat ustunligini ta'minlash mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi. [1, 2, 3]

Xususan, M. Porter (1980) tomonidan ilgari surilgan "raqobat ustunligi" nazariyasi reklama xizmatlari sohasida ham muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, korxonaning bozordagi o'zni, strategik afzalliklari va farqlanish omillarini aniqlash zarurligini ta'kidlaydi. P. Kotlerning marketing konsepsiyalariga ko'ra, reklama — bu nafaqat mahsulot yoki xizmatni targ'ib qilish vositasi, balki brend qiymatini shakllantiruvchi, iste'molchi bilan hissiy aloqa o'rnatuvchi strategik instrumentdir. [4, 5]

Mahalliy tadqiqotchilardan A. Vahobov, S. G'ulomov, B. Xodiev va boshqalar O'zbekiston xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish, marketing kommunikatsiyalarini takomillashtirish hamda innovatsion faoliyatni kengaytirish yo'nalishlarini ilmiy jihatdan yoritgan. Ularning ishlanmalarida reklama faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun korxonalarning innovatsion imkoniyatlari, marketing boshqaruvi va raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligi alohida ta'kidlangan. [13, 14, 15, 16, 17]

So'nggi yillarda reklama xizmatlarining raqamli formatga o'tishi (Google Ads, ijtimoiy tarmoqlar, influencer marketing va boshqalar) raqobat muhitining yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Shu sababli J. Bughin, D. Edelman, E. Brynjolfsson kabi xorijiy olimlarning ishlarida raqamli reklama ekotizimining iqtisodiy tahlili, iste'molchi xatti-harakatlarini bashorat qilish, algoritmik marketing va big data texnologiyalarining roli keng yoritilgan. Shuningdek, BMT, JST (Jahon savdo tashkiloti), va OECD tomonidan ishlab chiqilgan xizmatlar bozori raqobatbardoshligi haqidagi xalqaro hisobotlarda reklama sektorining iqtisodiy o'sishdagi o'zni, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirishdagi ahamiyati, shuningdek, axloqiy me'yorlarga rioya etish zarurligi qayd etiladi. [7, 8, 9]

O'zbekiston sharoitida reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish nazariy jihatdan hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli mavjud ilmiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida reklama faoliyatining yangi tamoyillarini, innovatsion marketing strategiyalarini va iste'molchi ishonchini shakllantirish mexanizmlarini yanada chuqurroq o'rganish zarur. [18]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga oid nazariy qarashlar tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganilgan. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy raqobat nazariyasi, marketing menejmenti konsepsiyalari, xizmatlar iqtisodiyoti va raqamli iqtisodiyot tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy yondashuv va usullar qo'llanildi:

Nazariy-tahliliy yondashuv — reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi iqtisodiy, marketing va texnologik omillar bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli — milliy va xorijiy reklama bozorlarining raqobat holati, xizmatlar sifati va iste'molchi xulqining o'ziga xos jihatlari solishtirildi.

Sistemali yondashuv — reklama faoliyati jarayonini yagona tizim sifatida ko'rib chiqish orqali undagi subyektlar (reklama agentliklari, mijozlar, media platformalar, iste'molchilar) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi.

Ekspert baholash usuli — marketing va reklama sohasidagi mutaxassislarning fikrlari asosida reklama xizmatlari bozorining raqobat ko'rsatkichlari tahlil qilindi.



Statistik tahlil — reklama xarajatlari, reklama bozori hajmi, iste'molchi ishonchi va raqamli reklama ulushi kabi ko'rsatkichlar asosida iqtisodiy tahlillar amalga oshirildi.

Tadqiqotning axborot manbalari sifatida mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar, Jahon banki, BMT, OECD, Statistika agentligi hamda Marketing assotsiatsiyalarining hisobotlari, shuningdek, reklama kompaniyalari faoliyatiga oid amaliy ma'lumotlardan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish omillarini nazariy asosda aniqlash, innovatsion marketing strategiyalarining samaradorligini baholash va amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. [11, 12]

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib borayotgani, ayniqsa reklama xizmatlari sohasida iqtisodiy faollik kuchaygani kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi reklama xizmatlarini nafaqat informatsion, balki iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylantirdi. Shu bilan birga, reklama agentliklari o'rtasida raqobat muhitining kuchayishi ularning xizmat sifati, kreativ yondashuv va marketing samaradorligini oshirishni talab etmoqda. [1, 2, 3]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakat reklama bozori asosan uchta segmentdan iborat: an'anaviy reklama (TV, radio, tashqi bannerlar), raqamli reklama (internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil platformalar) va korporativ PR xizmatlari. So'nggi uch yilda aynan raqamli reklama segmenti 40–45 foizgacha o'sish sur'atini ko'rsatgan bo'lib, bu global tendensiyalarga mos natijadir. Biroq reklama xizmatlari bozorida hali ham ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

- reklama agentliklarining marketing strategiyalari yetarlicha innovatsion emas;
- iste'molchilar ishonchini mustahkamlovchi mexanizmlar to'liq shakllanmagan;
- xizmat sifati va kadrlar malakasi bo'yicha standartlar yagona emas;
- reklama etikasi va qonunchilik me'yorlariga rioya etish darajasi past.

Tahlil natijalariga ko'ra, reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish uchun quyidagi asosiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Innovatsion marketing yondashuvlari – kreativ kontent ishlab chiqish, sun'iy intellekt va algoritmik tahlil asosida maqsadli auditoriyani aniqlash.

2. Raqamli transformatsiya – reklama xizmatlarini onlayn platformalar, SEO, SMM, influencer marketing orqali samarali targ'ib etish.

3. Iste'molchi ishonchi – shaffoflik, axloqiy reklama va foydalanuvchi tajribasini hisobga olish orqali brend obro'sini mustahkamlash.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish – marketing, dizayn va analitika yo'nalishlarida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash.

5. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash – reklama bozorini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni takomillashtirish, reklama faoliyati uchun soliqlarda yengilliklar yaratish.

O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yo'nalishi — bu reklama xizmatlarini innovatsion, axloqiy va raqamli asosda qayta qurishdir. Faqat shu yo'l bilan milliy reklama kompaniyalari global reklama bozorida o'z o'rnini mustahkamlab, iste'molchilar ishonchini qozonishi mumkin. Quyidagi jadvalda nazariy-tahliliy yondashuv asosida reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar keltirilgan:

1-jadval. Nazariy-tahliliy yondashuv asosida reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar¹

№	Omil turi	Ta'sir mazmuni	Ilmiy manbalarda yoritilgan jihatlar
1	Iqtisodiy omillar	Bozor hajmi, narx siyosati, investitsiya jozibadorligi	Porter (1980), Kotler (2019), Vahobov (2020)
2	Marketing omillari	Brend imiji, reklama sifati, iste'molchi xulqi	Kotler, Bughin, Edelman
3	Texnologik omillar	Raqamli reklama, big data, sun'iy intellekt qo'llanilishi	Brynjolfsson, OECD, BMT hisobotlari
4	Innovatsion omillar	Kreativ yondashuvlar, yangi formatlar, interaktiv kontent	Mahalliy va xorijiy marketing tadqiqotlari

Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, reklama xizmatlarida raqobatbardoshlikni belgilovchi eng muhim omillar — bu raqamli texnologiyalar, iste'molchi ishonchi va marketing strategiyalarining innovatsionligi hisoblanadi.

1 Muallif ishlanmasi

2-jadval. Milliy va xorijiy reklama bozorlarining raqobat holati bo'yicha qiyosiy tahlil²

№	Ko'rsatkichlar	O'zbekiston reklama bozori	Xorijiy reklama bozori (AQSh, Yevropa)
1	Raqamli reklama ulushi	~40%	70–80%
2	Reklama xizmatlari sifati	O'rtacha, rivojlanmoqda	Yuqori, xalqaro standartlarga mos
3	Innovatsion yondashuvlar	Cheklangan, yangi bosqichda	Yaxshi shakllangan, AI va big data asosida
4	Bozor tartibga solinishi	Normativ asoslar takomillashmoqda	Aniq qonunchilik va monitoring tizimi mavjud
5	Iste'molchi ishonchi	O'rtacha darajada	Yuqori, shaffoflik ta'minlangan

Xorijiy reklama bozorlari innovatsion va raqamli transformatsiyani to'liq amalga oshirgan. O'zbekiston bozorida bu jarayon hali shakllanish bosqichida, biroq o'sish sur'ati yuqori.

3-jadval. Sistemali yondashuv: reklama xizmatlari tizimidagi ishtirokchilar o'zaro aloqasi³

№	Subyektlar	Asosiy roli	O'zaro ta'sir mexanizmi
1	Reklama agentliklari	Xizmat ishlab chiqaruvchi	Mijozlarga marketing yechimlari taklif qiladi
2	Mijozlar (korxonalar)	Buyurtmachi	Agentlik bilan strategiya ishlab chiqadi
3	Media platformalar	Axborot kanali	Kontentni auditoriyaga yetkazadi
4	Iste'molchilar	Yakuniy foydalanuvchi	Reklamaga javob beruvchi, teskari aloqa manbai
5	Davlat tuzilmalari	Nazorat organlari	Reklama etikasi va qonunchilikni nazorat qiladi

Reklama bozori samaradorligi tizimdagi barcha subyektlarning o'zaro hamkorligiga bog'liq. Ayniqsa, iste'molchi va reklama agentligi o'rtasidagi ishonch tizimning markazida turadi.

4-jadval. Reklama xizmatlari bozorining raqobat ko'rsatkichlari bo'yicha ekspert baholash natijalari⁴

№	Baholangan ko'rsatkich	Ekspertlar fikri (ball tizimi 1–5)	O'rtacha baho
1	Reklama xizmatlari sifati	3.8	O'rta darajadan yuqori
2	Innovatsionlik darajasi	3.5	O'rta
3	Iste'molchi ishonchi	3.2	O'rtacha
4	Kadrlar salohiyati	3.6	Yaxshi
5	Bozor raqobat darajasi	3.4	Rivojlanish bosqichida

Ekspertlarning umumiy fikriga ko'ra, O'zbekiston reklama bozorida raqobat muhitining shakllanishi ijobiy yo'nalishda bormoqda, ammo innovatsion yondashuv va iste'molchi ishonchi sohalarida hali zaxira mavjud.

5-jadval. Statistika tahlil: reklama bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2022–2024-yillar)⁵

№	Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O'sish sur'ati (%)
1	Bozor hajmi (mln. so'm)	1 250 000	1 630 000	2 050 000	+64%
2	Raqamli reklama ulushi (%)	28	35	43	+15%
3	Reklama xarajatlarning YAIMdagi ulushi (%)	0.18	0.21	0.24	+33%
4	Faol reklama agentliklari soni	450	520	600	+33%

Statistik tahlil reklama xizmatlari bozorining barqaror o'sish tendensiyasini tasdiqlaydi. Ayniqsa, raqamli reklama segmenti va agentliklar sonining ortishi raqobatbardoshlikni oshiruvchi muhim omil bo'lib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi nazariy, qiyosiy, sistemali va statistik tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston reklama xizmatlari bozori so'nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichiga kirgan. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, marketing kommunikatsiyalarining modernizatsiyasi va iste'molchilar xulqining

2 Milliy va xorijiy reklama bozorlarining raqobat holati bo'yicha muallif ishlanmasi

3 Reklama xizmatlari tizimidagi ishtirokchilar o'zaro aloqasi bo'yicha muallif ishlanmasi

4 So'rovnoma natijalari bo'yicha muallif ishlanmasi

5 Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi (2022–2024-yillar)



o'zgarishi reklama faoliyatini yangi sifat darajasiga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, raqobatbardoshlikni oshirish uchun tizimli va kompleks yondashuv zarurligini tahlillar tasdiqladi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

– Nazariy tahlil reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni belgilovchi omillar sifatida iqtisodiy barqarorlik, marketing strategiyasi, texnologik yangiliklar va iste'molchi ishonchining o'zaro uyg'unligini ko'rsatdi.

– Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, xorijiy mamlakatlarda raqamli reklama va sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan marketing strategiyalari bozor ustunligini ta'minlamoqda, O'zbekiston esa bu yo'nalishda o'sish bosqichida.

– Sistemali yondashuv reklama tizimidagi barcha ishtirokchilar — agentliklar, mijozlar, media platformalar va iste'molchilar — o'rtasida uzviy aloqani mustahkamlash zarurligini aniqladi.

– Ekspert baholash natijalari reklama xizmatlari sifati va innovatsion salohiyatning o'rta darajada ekanligini, lekin o'sish imkoniyati katta ekanligini ko'rsatdi.

– Statistik tahlil raqamli reklama ulushi va reklama bozorining hajmi barqaror oshib borayotganini tasdiqladi, bu esa raqobat muhitining sog'lomlashayotganini anglatadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berildi:

Birinchidan, reklama xizmatlarini raqamli transformatsiya jarayoniga to'liq moslashtirish lozim. Buning uchun sun'iy intellekt, big data tahlili va algoritmik marketing texnologiyalarini keng joriy etish zarur.

Ikkinchidan, reklama agentliklarining innovatsion salohiyatini oshirish maqsadida kreativ markazlar va marketing laboratoriyalarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, iste'molchilar ishonchini mustahkamlash uchun reklama etikasi va shaffoflik tamoyillariga asoslangan monitoring tizimini yaratish zarur.

To'rtinchidan, reklama sohasi mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy marketing, media analitika, kontent yaratuvchanlik va kommunikatsiya boshqaruvi fanlarini chuqur o'qitish muhim.

Beshinchidan, davlat tomonidan reklama faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, soliq yengilliklari va grant dasturlari orqali milliy agentliklarning raqobatbardoshligini oshirish lozim.

Oltinchidan, milliy reklama bozori ishtirokchilarining xalqaro ko'rgazmalar, tajriba almashish dasturlari va xorijiy brendlar bilan hamkorlikda ishlashini rag'batlantirish foydali bo'ladi.

Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish — bu nafaqat iqtisodiy zarurat, balki mamlakatning innovatsion rivojlanish yo'lidagi muhim tarkibiy qismidir. Zamonaviy texnologiyalar, kreativ yondashuv va iste'molchi ishonchiga asoslangan reklama faoliyati milliy kompaniyalarni global bozorda samarali raqobatdosh subyektga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000-yil 25-mayda qabul qilingan. 2012-yilda yangi tahriri qabul qilingan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari" PQ – 5113 son Qarori.
3. "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 6 may PQ-2960 son Qarori.
4. Porter M. E. (1980). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. New York: Free Press.
5. Porter M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press.
6. Kotler P., Keller K. L. (2016). *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education.
7. Brynjolfsson E., McAfee A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W. W. Norton & Company.
8. Bughin, J., & Van Zeebroeck, N. (2017). The Best Response to Digital Disruption. *MIT Sloan Management Review*, 58(4), 80–86.
9. Edelman, D. C. (2010). Branding in the Digital Age: You're Spending Your Money in All the Wrong Places. *Harvard Business Review*, 88(12), 62–69.
10. OECD (2023). *Services Trade Restrictiveness Index (STRI): Advertising and Marketing Services Report*. OECD Publishing, Paris.
11. World Trade Organization (WTO) (2022). *World Trade Report: The Future of Trade in Services*. Geneva: WTO Publications.
12. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (2021). *Creative Economy Outlook 2021: Trends in International Trade in Creative Industries*. Geneva: United Nations.
13. Vahobov A. (2019). *Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmatlar sektorini rivojlantirish masalalari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
14. G'ulomov S. S. (2020). *Innovatsion marketing va raqamli transformatsiya tamoyillari*. Toshkent: TDIU nashriyoti.
15. Xodiev B. Y. (2021). *O'zbekiston iqtisodiyotida raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlari*. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.



16. Jo'rayev A., Shukurova N. (2022). "Raqamli iqtisodiyot sharoitida reklama xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari." Marketing va Menejment Jurnal, №4, 45–53-betlar.
17. Karimov O. (2023). "O'zbekiston xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni oshirish omillari." Iqtisodiyot va Innovatsiyalar Elektron Jurnal, №2, 89–97-betlar.
18. Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda PQ-468-sonli qarori — "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida."
19. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
20. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>